

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI”  
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY – TEXNIKAVIY  
ANJUMANI MATERIALLARI**

**(1 - to‘plam)**

**2026-yil 21-22 may**



**Farg‘ona - 2026**

**“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.

2026-yil 21-22 may kunlari Farg‘ona davlat texnika universitetida **“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Ushbu to‘plamda xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari o‘rin olgan. To‘plamda oliy va o‘rta ta’lim muassasalari, ilmiy tekshirish institutlari, Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanish natijalari keltirilgan.

#### **Konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasi:**

Tojiyev R.R. – tashkiliy qo‘mita raisi, Farg‘ona davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor;

Davlyatov Sh.M. – FDTU tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari, II va IB prorektori, t.f.f.d., (PhD);

Jaxongirov I.J. – FDTU O‘IB prorektori, iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent;

Salimov A.A. – FDTU MIIB prorektori, i.f.f.d. (PhD);

Dexqonov Sh. - FDTU YMMMIB 1-prorektor, i.f.f.d. (PhD);

Igamberdiyev B.G. – FDTU IPKT bo‘limi boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent.

Abduxalilov B. K. – FDTU Yengil sanoat texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d, (PhD).

Nuriddinov M. – FDTU hodimlar kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi.

Kamilov A.A. – FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası mudiri, t.f.n.;

Obidova G. – FDTU “Tillarni o‘rgatish” kafedrası mudiri, f.f.d.;

Tuxtarov I. M. – FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası dotsenti, f.f.n.;

Kochkorova G.D. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası dotsenti, f.f.n.;

Rustamov I.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası dotsenti, f.f.n.;

Tishabayeva I. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası dotsenti, t.f.n.;

Xonqulov Sh.X. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD);

Abdurahmonov G‘.Z. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);

Abduxamidov I.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD);

vazifasidir”<sup>8</sup>. Yuqoridagi fikrlardan yoshlarimizni yo‘ldan adashmasliklari uchun barchamiz birdek mas’ul ekanligimizni teran anglashimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv sharoitida mamlaktimizga chetdan bizning xalqimiz mentalitetiga, orzu-umidlariga, mafkuramizga yot bo‘lgan turli xil ma‘naviy tahdid va mafkurlar kirib kelmoqda. Shu sababli yoshlarimizni ushbu yot, zararli g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini oshirish hamda ularni yuksak ma‘naviyatli shaxs etib tarbiyalash masalalari juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. *Yoshlarimiz-xalqimizning ishonchi va tayanchi*. T.: “Ma‘naviyat”.
2. Мурзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. -Тошкент: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish –barqaror taraqqiyot kafolatidir*// URL – <http://uzlidep.uz/uzc/news/ demokratik-islohotlarni-izchil-davom-ettirish-halkimiz-uchun-tinch-va-osoyishta-munosib-khayot>.
4. Мурзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. -Тошкент: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021.
5. Mirziyoyev.SH “*Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash–davrl talabi*” mavzusidagi videoselektordagi nutqidan.2017
6. Tulenov J., Supov K., G‘afurov Z. *Istiqol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo‘nalishlari*. Toshkent. «O‘zbekiston», 1993, 312-bet.
7. Otamuratov S. *Globalashuv va millat*. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.-56 b.
8. Xajiyeva.M.S “*Globalashuv asoslari*” darslik, Toshkent: 2020.

### **SOG‘LOM AVLODNI TARBIYALASHDA EKOLOGIK QADRIYATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Bayeshanov Abdulla Mustafayevich** – Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, jamiyatni ham jismoniy ham ma‘naviy sog‘lom a‘zolarini kamol toptirishni ona xalqimiz o‘zining bir necha ming yillik tarixining barcha bosqichlarida eng asosiy vazifasi sifatida qarab kelgan.

“Sog‘lom avlod – jismonan sog‘, ma‘nan barkamol, zararli ta’sirlardan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan holi, toza, pok, sog‘lom fikrli avlod. Sog‘lom avlod – sog‘lom naslli, jismoniy baquvvat, ruhi tetik, fikri tiniq, iymon-e’tiqodli, ma‘naviyatli, mard va jasur, vatanparvar shaxs” [1, 535-b].

Mamlakatimizdada sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilib, asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan.Shuni ta’kidlash lozimki, bugungi globallashgan dunyoda inson salomatligini atrof-muhitdan holi, ayro holda tasavvur etish mushkul. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining yangilangan tahlillariga ko‘ra, dunyodagi umumiy o‘lim ko‘rsatkichlarining 24 foizi bevosita biz bartaraf eta oladigan ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, fojiali jihati shundaki, bu ko‘rsatkich besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida yanada yuqori - 28 foizni tashkil etmoqda.[2] shu nuqati-nazardan qarasak, sog‘lom avlodni tarbiyalashda nafaqat tibbiy, balki ekologik omillarni ham hisobga olishni taqazo etadi. Bugungi ekologik muammolar avj olib, global ekologik inqiroz kuchaygan bir

---

<sup>8</sup> Mirziyoyev.SH “*Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash–davrl talabi*” mavzusidagi videoselektordagi nutqidan.2017.

sharoitda jismoniy barkamollikdan tashqari tabiat bilan uyg'un yashay oladigan ma'naviya yetuk yoshlarni tarbiyalash lozim. Chunki, musaffo tabiat, tozza atrof-muhit bo'lmas ekan, sog'lom inson mavjud bo'la olmaydi.

Xalqimiz "sog' tanda-sog'lom aql" deb bejizga aytishmagan. Ham jismoniy ham ruhiy salomatligi barqaror odamnigina barkamol deb aytish mumkin. Inson salomatligi - murakkab va ko'pqirrali tushuncha bo'lib, u nafaqat tibbiy, balki ekologik va axloqiy mezonlar asosida shakllanadi.

"Inson sog'lom yashashi uchun, u yashaydigan makon 5 ta asosiy talablarga mos bo'lishi kerak: 1 - toza havo; 2 - yetarli miqdordagi ichimlik suvi; 3 - kerakli minerallar bilan to'yintirilgan oziq-ovqatlar; 4 - tinch yashashi uchun xavfsiz makon; 5 - barqaror global ekotizim".[3,145-b]. Toza havo inson salomatligi asosidir. "Odam tinch o'tirganida bir minutda 16-18 marta nafas olib, nafas chiqaradi. Harakatanganda yoki jismoniy mehnat bilan shug'ullanganda nafas olish tezlashadi"[4, 73-b]. Musaffo havo jismoniy salomatlikni birinchi sharti bo'lsa, uni asrash ma'naviy majburiyat, qadriyat hisoblanadi.

Sog'lom avlodni tarbiyalashning eng birlamchi sharti - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslar-havo, suv, tuproq tozaligidir. Atrof-muhitning ifloslanishi bevosita irsiy o'zgarishlarga va surunkali kasalliklarning ko'payishiga olib keladi. "Shahar havosining ifloslanishi har yili dunyo bo'ylab 1,3 million kishining o'limiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bolalar nafas olish organlari tizimining yetilmaganligi tufayli xavf ostidadir. 2015-yilda tashqi havoning, asosan, PM2,5 bilan ifloslanishi, dunyo bo'ylab Osiyoda yiliga 3,3 (95 % CI 1,61-4,81) million erta o'limga olib kelishi taxmin qilingan".[5]

Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda qadriyatlardan unumli foydalanish katta ahamiat kasb etadi. Ayniqsa, ekologik qadriyatlar yoshlarda tabiatni asrash orqali o'z sog'lig'ini asrash tuyg'usini shakllantiradi. Ekologik qadriyatlarga amal qilgan, tabiatni asrash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatilgan avlod xavfsiz turmush tarzini tanlaydi. O'simlikka ozor bermaydigan, hayvonlarga shafqat ko'zi bilan qaraydigan bola hech qachon insonlarga nisbatan ham shafqatsiz bo'lmaydi. Ekologik qadriyatlar insonda insonparvarlikni shakllantiradi.

Ekologik qadriyatlar shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi muhim omildir. Abdulla Avloniy aytganidek, tarbiya biz uchun "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [6,11] Bugungi kunda bu tarbiya tarkibiga ekologik madaniyatni kiritish shart.

Sog'lom avlod oilada shakllanadi. Ota-onaning tabiatga munosabati farzand uchun asosiy namuna bo'lib xizmat qiladi. Agar oilada tabiatga nisbatan mehr, atrof muhitga ehtiyotkorona munosabat shakllangan bo'lsa, albatta bu oilada chinakam insoniy fazilatlar egalari tarbiya topadi. Ota-ona tomonidan kundalik hayot jarayonida chiqindini saralash, suvni tejash, energiya tejash, isrof qilmaslik kabi oddiy ko'nikmalarni bajarilishi oilada odatga aylanishi, keyinchalik sog'lom avlodning kundalik madaniyatiga aylanishiga sabab bo'ladi.

Xalqimizning "Birni kessang, o'nni ek", "'Suv ichadigan qudug'ingga tupurma" [7,512-b]kabi maqollari zahirida ulkan ekologik qadriyat yotadi. Bu an'analarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish sog'lom avlod tarbiyasida muhim mexanizm hisoblanadi.

Oilada berilgan ekologik tarbiyani ta'lim muassasalarida davom ettirish lozim. Chunki, tarbiya uzluksiz va davomi bo'lishi lozim. Ta'lim muassasalarida antropotsentrizmdan g'oyasining salbiy oqibatlari, shuningdek ekotsentrizmning ijobiy jihatlari va insoniyatga foydasi targ'ib qilinishi lozim. Bu yoshlarda tabiat bilan ug'unlikni his qilish, unga nisbatan mehr-shafqat tuyg'ularini shakllantiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sog'lom avlodni tarbiyalash bu shunchaki jismoniy tarbiyadagina iborat jarayon emas. Bu avvalo, insonning dunyoqarashini, uning tabiat va atrof-muhitga bo'lgan ma'naviy munosabatini sog'lomlashtirishdir. Ekologik qadriyatlar shakllangan jamiyatda sog'lom nasllar dunyoga keladi voyaga yetadi. Zero, tabiatni sevish - vatanni sevishdir, tabiatni asrash esa - kelajakni, sog'lom avlodni asrash demakdir.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati***

1. *Nazarov va b. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2021. – 816 b.*
2. *<https://www.who.int/publications/i/item/9789241565196>*
3. *Фрумин Г.Т. Экология человека (Антропоэкология). Учебное пособие. – СПб., Изд. РГГМУ, 2012.- С.145*
4. *Biologiya(odam va uning salomatligi).Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: "O'qituvchi" nashriyot-matbuot ijodiy uyi, 2019-yil, 73-bet.*
5. *Mominjonov N.N. (2023). ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI NATIJASIDA INSONLARGA BO'LAYOTGAN TA'SIRI. Экономика и социум, (11 (114)-1), 226-230.c*
6. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 11-bet.*
7. *O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; M as'ul muharrir: Sh. Turdimov. — T.: «Sharq», 2005. — 512 b.*

### **BEHBUDIYNING YOSHLAR HAQIDAGI QARASHLARI: "YOSHLARGA MUROJAAT" VA "MUHTARAM YOSHLARGA MUROJAAT"**

#### **MAQOLALARI TAHLILI**

**Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi,**

**FarDTU katta o'qituvchisi (PhD)**

**Turniyozov Salohiddin Dusboy o'g'li**

**Farg'ona davlat texnika universiteti,**

**Elektr muhandasligi kafedrası 50-23 EEE guruh talabasi**

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar fonida jadidchilik harakati yuzaga keldi. Bu harakat, mohiyatan, musulmon jamiyatini an'anaviy dunyoqarash asosida emas, balki zamonaviy ilm-fan va demokratik qadriyatlar tamoyillari asosida isloh qilishga yo'naltirilgan intellektual harakat sifatida tavsiflanadi. Jadidlar — «yangilikchi»lar — mustamlaka sharoitida millatni ma'naviy va intellektual jihatdan uyg'otishni o'zlarining bosh vazifasi deb bildilar.

Jadidchilik mafkurasi o'z mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali edi: u ta'lim islohotini, milliy matbuot va adabiyotni rivojlantirishni, diniy-huquqiy tizimni modernizatsiya qilishni o'z ichiga olgan. Ismoilbek Gasprinskiyning «Tarjumon» gazetasi asosiga

|                                                                                                                                                                                                                 |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| Глобаллашув шароитида экологик мухит барқарорлигини таъминлашнинг айрим маърифий жиҳатлари                                                                                                                      |            |
| <b>Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi</b><br>Neojadidchilik paradigmasi va yoshlar ma'naviy kamolotining zamonaviy konseptual asoslari                                                                          | <b>115</b> |
| <b>Axatova Dildora Axtamovna</b><br>Ibn Sino Va G'Azzoliy Qarashlarida Yoshlar Ma'naviy Kamoloti Masalasi                                                                                                       | <b>119</b> |
| <b>Mardiyeva Bibisora Musoxon qizi, Ung'arov Jahongirbek Yo'ldosh o'g'li</b><br>Globallashuv davrida ta'lim standartlari asosida yoshlar ongida ideal qahramon obrazini shakllantirish muammolari va yechimlari | <b>122</b> |
| <b>Yaxyojonova Mohidil Husan qizi</b><br>Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning zamonaviy konseptual asoslari.                                                                        | <b>125</b> |
| <b>Urinbayeva Maftuna Sodikovna</b><br>Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini saqlash masalalari                                                                                                         | <b>127</b> |
| <b>Dodobayeva Gavharxon Ma'murjon qizi</b><br>Yoshlar ma'naviyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni                                                                            | <b>131</b> |
| <b>Yuldashev Bexzod Ruzimatovich</b><br>Jadidchilik tafakkurida ijtimoiy adolat va tenglik masalalari                                                                                                           | <b>136</b> |
| <b>Axmadaliyeva Ra'noxon O'rinboy qizi, Alimova Shahina Sherzodjonovna</b><br>Moddiy yodgorliklar – tarix ko'zgusi                                                                                              | <b>140</b> |
| <b>Toshpo'latov Bekzod Shuhratovich</b><br>Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari                                                            | <b>142</b> |
| <b>Bayeshanov Abdulla Mustafayevich</b><br>Sog'lom avlodni tarbiyalashda ekologik qadriyatlarning o'rni va ahamiyati                                                                                            | <b>146</b> |
| <b>Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi, Turniyozov Salohiddin Dusboy o'g'li</b><br>Behbudiyning yoshlar haqidagi qarashlari: "yoshlarga murojaat" va "muhtaram yoshlarga murojaat" maqolalari tahlili            | <b>148</b> |
| <b>Tojiboyeva Maftunaxon Xosiljon qizi, Maxkamova Dildora Baxtiyorovna</b><br>Ingliz tili darslarida smart ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari                              | <b>152</b> |
| <b>N.D.Teshabayeva</b><br>Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini shakllashtirishning zamonaviy konseptual asoslari va neojadidchilik paradigmasi                                                         | <b>154</b> |
| <b>Khamdamova S.O. , Zokirjonova M.</b><br>Teaching gender terminology to efl and esp learners: Effects, solutions, and pedagogical methodologies                                                               | <b>156</b> |
| <b>Mamajonova Gulnoza Karimovna</b>                                                                                                                                                                             | <b>161</b> |